

## DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIKDA OB HAVO BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR

1. Shodiyorov Umrzoq Ibodulla o'g'li

2. Kodirov Fayyozidin Raimjon o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7638085>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dehqonchilik va chorvachilikda ob havo bilan bog'liq bo'lgan milliy marosimlarimiz haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik haqida, uning tarixiy jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Dehqonchilik, chorvachilik, etnologiya, marosim, urf-odat, tarix, fasl bilan bog'liq marosimlar.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ilm-fan, texnika, kimyo, ishlab chiqarish taraqqiyot etayabdi. Avvalambor har bir o'zgarishning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Shu kabi rivojlanib borayotgan tarmoqlar o'z navbatdi ayrim sohalarda bir muddat holi qolishga olib keladi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, tarix, etnomadaniyat, tarixiy etnologiya, etnografiya va antropologiya kabi sohalarda bir qancha ilmiy tadqiqotlarni olib borish ilm-fanimiz uchun muhimdir.

Tarixiy etnologiya, etnografiyadan, ya'ni xalqlar turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini tavsiflashdan boshlangan. XX asrda mutaxassis olimlar va tadqiqotchilar tomonidan, asosan, ma'lumotlarni yig'ish ishlari bajarilgan. Ayniqsa, bunga aynan mazkur davrda dunyo bo'yicha olib borilgan mustamlakachilik siyosati ham bevosita ko'maklashgan bo'lib, bu siyosat mustamlaka mamlakatlarning madaniyati, turmush tarzi va umuman milliy xususiyatlaridan batafsil xabardor bo'lishni taqozo etar edi. Tadqiqotchilar tomonidan ma'lum darajada faktik materiallar yig'ilgandan keyin etnologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda yig'ilgan materiallarni umumlashtirish va ma'lum bir nazariy-metodologik konsepsiyaga suyangan holda tahlil qilish jarayoni boshlandi. [5. 183 b].

Insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida turli-tuman marosimlar mavjud bo'lgan. Har bir marosim, shubhasiz, ma'lum bir etnos yoki etnik jamoa ta'sirida shakllanadi. Xilma-xil etnomarosimlar ichida olimlar dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq marosimlarni alohida ajratib ko'rsatishadi. Avvalombor marosim deyilganda biz - diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in: diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi va boshqalar.

Keling endi esa chorvachilik bilan bog'liq marosimlarga to'xtalishdan oldin chorvachilik haqida biroz ma'lumot bersak: **Chorvachilik** — qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanadi; aholini ish hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya, bug'u), oziqovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go'sht, yog', tuxum va boshqalar), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo'yna va h.k.), dehqonchiliksh organik o'g'it bilan ta'minlaydi. [1. 12 B] Endi esa dehqonchilik haqida biroz to'xtalsak: **Dehqonchilik** - o'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o'simliklar (qishloq xo'jaligi ekinlari)ni yetishtirish; qishloq xo'jaligining asosiy tarmoklaridan biri. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni yem-xashak, ko'pgina

sanoat tarmoushri (oziq-ovqat, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa)ni xom ashyo bilan ta'minlaydi. Chorvachilik bilan uzviy bog'liq. Dehqonchilikda (asosiy tarmoq), sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, gulchilik, yaylov-o'tloqchilik kabi tarmoqlarga bo'linadi. [4. 25 B].

Chorvachilik va dehqonchilikda yoritilgann ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak bu sohalar ancha ijtimoiy-maishiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida chorvachilik va dehqonchilikning paydo bo'lishi uzoq tarix bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixdan ma'lumki chorvachilik va dehqonchilikda ob-havo bilan bog'liq bo'lgan bir qancha marosimlar bo'lgan va hozirga qadar amalda qo'llaniladigan joylar mavjud. Bu marosimlarni etnologiyada o'rganishimiz mumkin bo'ladi. "Etnologiya «marosim», «urf-odat», «an'ana», «bayram»lar fanning asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida keng qo'llaniladi. Chunki har bir xalqning shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayram va sayllar shakllanib, taraqqiy etib boradi. Ular kishilar turmush tarzining muhim bir bo'g'ini tarzida tarkib topadi. Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an'analarni, rasm-rusumlar va urf-odatlarni xalq marosimining fenomeni tarzida o'rganish dolzarb muammolardan biri sanalib kelingan. Ayniqsa, respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miqyosida e'tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an'anaviy marosimda tutgan o'rni, ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda". [5, 185, B].

Shuningdek, marosim - inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. [6. 152, B] Boshqacha aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir. Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoi dalari ko'nikmasidir.

O'z navbatida, quyidagilarni dehqonchilik va chorvachilikda ob-havo bilan bog'liq marosim turkumlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

**1. Qishki marosimlar.** Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkazildagan «qor yog'di» kabi marosimlar kiradi.

**2. Bahorgi marosimlar.** Bunga dastlabki «shox moylar» — dalaga qo'sh chiqarish marosimi, dastlabki urug'ni yerga tikish marosimi, Navro'z, sumalak sayli, «sust xotin», loy tutish, hasharlar kabi marosimlar kiradi.

**3. Yozgi marosimlarga** «Choy momo», qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.

**4. Kuzgi marosimlar.** Bu turkum marosimlarga «Oblo baraka», shamol chaqirish va hosil bayrami marosimlari kiradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkin bo'ladiki marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o'z hayotlari davomida ko'plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar. Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtda ushbu dehqonchilik va chorvachilikda ob-havo bilan bog'liq bo'lgan marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos marosim mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma'naviy marosimda ham, jumladan, marosimlarda ham namoyon bo'ladi.

### References:

1. Shchekin V.A., Chorvachilik, T., 1968; Nosirov U., Qoramolchilik, T., 2001.
2. Rasteniyevodstvo/Pod red. V. P. Vavilova, M., 1986; FAO Production yearbook 1999
3. Ermatov, Abdurahim va Xolnazarov, Sulton. *O'zME*. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Ermatov A., Dehqonchilik. Toshkent., 1990;
5. Adhamjon Ashirov Etnologiya o'quv qo'llanma ikkinchi nashr Toshkent «yanginashr» 2014.yil 182-188-betlar.
6. Sarimsoqov B. Marosim folklori // O'zbek folklori, ocherklar T., 1988. - B. 152.